ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI NATIJALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY QONUNCHILIK, XORIJIY TAJRIBA VA RAQAMLI DALILLAR KONTEKSTIDA

Xaydarov Mansur Maxmudjonovich
«A.S.-Huquq» Advokatlar hay’ati advokati,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dosent v.b.

https://doi.org/10.5281/zenodo.23892170

Annotatsiya. Maqsad. *Jinoyat ishlari bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyati (TQF) natijalaridan foydalanishning ijtimoiy zaruriyati va huquqiy asoslarini kompleks tahlil qilish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.* ***Metodlar.*** *Tarixiy-huquqiy, formal-mantiqiy, tizimli-tarkibiy va qiyosiy-huquqiy usullar qo‘llanildi. Normativ bazani 2023-yilgi Konstitutsiya, «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun, Jinoyat-protsessual kodeksi, Oliy sud Plenumi qarorlari va 2024-yilgi raqamli dalillar to‘g‘risidagi qonun tashkil etdi. Qiyosiy tahlil MDH davlatlari, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya qonunchiligi va Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi amaliyotini qamrab oldi. Empirik baza — muallif tomonidan tergov qilingan 400 dan ortiq jinoyat ishi va 100 dan ortiq sud hukmi.* ***Natijalar.*** *TQF natijalaridan foydalanish huquqiy asoslarining ko‘p darajali tizimi aniqlandi. Konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi tadbirlarga ruxsat berishdagi ikki xil standart (prokuror va tergov sudyasi), provokatsiya mezonlarining yo‘qligi, raqamli natijalarning tezkor bosqichdan protsessual bosqichga o‘tishi reglamentlanmaganligi kabi yetti tizimli kamchilik ko‘rsatildi. Natijalarni taqdim etish va rasmiylashtirish amaliyotidagi takrorlanuvchi muammolar tasniflandi.* ***Xulosa.*** *TQF natijasi qonuniy olingan, JPKda belgilangan tartibda taqdim etilgan, tekshirilgan va baholangan taqdirdagina dalil maqomini oladi. TQF Qonunining 16 va 19-moddalariga, JPKning 88 va 204²-moddalariga o‘zgartishlar hamda raqamli natijalar uchun yagona standart (xesh-summa, saqlash zanjiri, yagona reyestr) taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari, dalil, maqbullik, isbotlash, dastlabki tergov, raqamli dalil, inson huquqlari, sud nazorati, provokatsiya.*

Аннотация. Цель. *Комплексный анализ социальной обусловленности и правовых основ использования результатов оперативно-розыскной деятельности (ОРД) по уголовным делам и разработка предложений по совершенствованию национального законодательства.* ***Методы.*** *Применены историко-правовой, формально-логический, системно-структурный и сравнительно-правовой методы. Нормативную базу составили Конституция 2023 года, Закон «Об оперативно-розыскной деятельности», УПК, постановления Пленума Верховного суда и закон 2024 года о цифровых доказательствах. Сравнительный анализ охватил законодательство государств СНГ, США, Великобритании, Германии, Франции и практику Европейского суда по правам человека. Эмпирическая база — более 400 уголовных дел, расследованных автором, и более 100 судебных приговоров.* ***Результаты.*** *Выявлена многоуровневая система правовых основ использования результатов ОРД. Установлены семь системных пробелов, в том числе двойной стандарт санкционирования мероприятий, ограничивающих конституционные*

права (прокурор и следственный судья), отсутствие критериев провокации и нерегламентированность перехода цифровых результатов из оперативной стадии в процессуальную. Классифицированы типичные проблемы представления и оформления результатов ОРД. ***Выводы.*** *Результат ОРД приобретает статус доказательства лишь при условии его законного получения, представления, проверки и оценки в порядке, установленном УПК. Предложены изменения в статьи 16 и 19 Закона об ОРД, статьи 88 и 204² УПК, а также единый стандарт для цифровых результатов (хеш-сумма, цепочка хранения, единый реестр).*

Ключевые слова: *оперативно-розыскная деятельность, результаты ОРД, доказательство, допустимость, доказывание, предварительное следствие, цифровые доказательства, права человека, судебный контроль, провокация.*

Abstract. Purpose. *To provide a comprehensive analysis of the social necessity and legal foundations of using the results of operational-search (covert investigative) activity in criminal cases and to formulate proposals for improving national legislation.* ***Methods.*** *Historical-legal, formal-logical, systemic-structural and comparative-legal methods were applied. The normative base comprised the 2023 Constitution of Uzbekistan, the Law on Operational-Search Activity, the Code of Criminal Procedure, Supreme Court Plenum rulings and the 2024 law on digital evidence. The comparative analysis covered CIS countries, the USA, the UK, Germany, France and the case law of the European Court of Human Rights. The empirical base consisted of more than 400 criminal cases investigated by the author and more than 100 court judgments.* ***Results.*** *A multi-level system of legal foundations was identified. Seven systemic gaps were established, including a dual standard for authorising measures that restrict constitutional rights (prosecutor vs. investigating judge), the absence of statutory entrapment criteria, and the lack of rules governing the transfer of digital results from the operational to the procedural stage. Recurring problems in the submission and formalisation of operational-search results were classified.* ***Conclusions.*** *An operational-search result acquires evidentiary status only if it has been lawfully obtained, submitted, verified and assessed under the Code of Criminal Procedure. Amendments to Articles 16 and 19 of the Law on Operational-Search Activity and Articles 88 and 204² of the Code, together with a single standard for digital results (hash values, chain of custody, unified register), are proposed.*

Keywords: *operational-search activity, covert measures, evidence, admissibility, proof, preliminary investigation, digital evidence, human rights, judicial control, entrapment.*

Zamonaviy jinoyatchilik tobora uyushgan, professional va transmilliy tus olib bormoqda. Jinoyatchilar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shifrlangan aloqa vositalaridan, virtual aktivlar va masofaviy bank xizmatlaridan foydalanib, jinoyat izlarini yashirishning yangi usullarini qo‘llamoqda. Bunday sharoitda jinoyatlarni faqat oshkora, Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda — JPK) bilan tartibga solingan protsessual vositalar yordamida fosh etish ko‘p hollarda qiyin, ayrim hollarda esa imkonsiz bo‘lib qolmoqda. Ichki ishlar organlarining jinoiy-huquqiy statistikasiga ko‘ra, 2021-yilda 2019-yilga nisbatan og‘ir jinoyatlar soni 303,21 foizga,

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

o‘ta og‘ir jinoyatlar soni esa 169,17 foizga oshgan[1] (1-rasm). Bu ko‘rsatkichlar latent va yuqori ijtimoiy xavfli jinoyatlarni aniqlash hamda isbotlashda TQF imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish zaruratini yaqqol ko‘rsatadi.



1-rasm. Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sonining o‘sishi (2021-yil, 2019-yilga nisbatan, %). Manba: IIV statistik ma’lumotlari.

Shu bilan birga, TQF o‘z tabiatiga ko‘ra nooshkora faoliyat bo‘lib, fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligi, yozishmalar va telefon so‘zlashuvlari siri, turar joy daxlsizligi kabi konstitutsiyaviy huquqlariga bevosita daxl qiladi. Shu bois TQF natijalaridan jinoyat ishlari bo‘yicha foydalanish masalasi ikki qutbli muvozanatni talab etadi: bir tomondan, jinoyatchilikka qarshi samarali kurash va javobgarlikning muqarrarligi, ikkinchi tomondan, shaxs huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi hamda Konstitutsiya va qonunlarga so‘zsiz bo‘ysunish. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bugun jamiyatimizda «Qonun — ustuvor, jinoyatga — jazo muqarrar» degan tamoyil qaror topmoqda[2]. Ushbu tamoyilning har ikki qismi — qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligi — aynan TQF natijalaridan foydalanish institutida uyg‘unlashadi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sud-huquq tizimini isloh qilish, shaxs huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[3]. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya, 2024-yilda raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun hamda 2025-yil 1-yanvardan joriy etilgan tergov sudyasi instituti mazkur sohaning huquqiy asoslarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Biroq TQF to‘g‘risidagi qonunchilik bu o‘zgarishlarga hali to‘liq moslashtirilmagan.

Tarixiy davrlarda maxfiy axborot asosan hukmdorning siyosiy manfaatlariga xizmat qilgan va huquqiy cheklovlarsiz qo‘llanilgan. Sovet davrida esa TQF yopiq idoraviy hujjatlar bilan tartibga solinib, uning natijalaridan foydalanish tartibi ochiq qonunchilikda mustahkamlanmagan edi. Mustaqillik yillarida bu soha bosqichma-bosqich qonun doirasiga olib chiqildi: 1992-yilgi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining jinoiy-huquqiy statistikasi materiallari (2019–2021-yillar).

[2] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 3-nashr. – T.: «O‘zbekiston», 2022. – B. 29.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

Konstitutsiya shaxsiy hayot daxlsizligini kafolatladi, 1994-yilgi JPK dalillar va ularning maqbulligi tizimini belgiladi, 2012-yilda esa birinchi marta alohida «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Shu tariqa TQF «maxfiy siyosiy vosita»dan «qonun bilan cheklangan, nazorat qilinadigan davlat faoliyati»ga aylandi. Bu jadallashishning mantiqiy davomi — TQF natijalaridan foydalanishni to‘liq sud nazorati va protsessual kafolatlar ostiga o‘tkazish — hozirgi bosqichning asosiy vazifasidir.

Mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotda TQF natijalarining isbotlashdagi maqomi keng o‘rganilgan: rossiyalik va ukrainalik olimlardan D.I.Bednyakov, Ye.A.Dolya, S.A.Sheyfer, M.A.Pogoretskiy, mahalliy olimlardan F.M.Muxitdinov, Sh.I.Inomjonov, V.Karimov va boshqalarning asarlari bunga misol bo‘ladi. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyati 2023-yilgi Konstitutsiya, 2024-yilgi raqamli dalillar to‘g‘risidagi qonun va 2025-yilda joriy etilgan tergov sudyasi institutidan oldin bajarilgan. Shu sababli TQF natijalaridan foydalanishning yangilangan konstitutsiyaviy asoslari, raqamli TQF natijalarini dalilga aylantirish tartibi va ularni amaliyot ma’lumotlari bilan asoslash masalalari kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi — jinoyat ishlari bo‘yicha TQF natijalaridan foydalanishning ijtimoiy zaruriyati va huquqiy asoslarini kompleks tahlil qilish, xorijiy tajriba va ilmiy munozara natijalarini umumlashtirish asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** qo‘yildi: (1) TQF natijalari tushunchasi va ulardan foydalanishning ijtimoiy zaruriyatini asoslash; (2) huquqiy asoslar tizimini va uning 2023–2025-yillardagi o‘zgarishlarini tahlil qilish; (3) qo‘shni va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy o‘rganish; (4) TQF natijalarini, shu jumladan raqamli natijalarni taqdim etish va rasmiylashtirish amaliyotidagi muammolarni aniqlash; (5) qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish.

«Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, tezkor-qidiruv faoliyati — ushbu Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo‘linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir[4]. Qonuniy ta’rif faoliyatning sub’ekti va vositasini ko‘rsatsa-da, uning ijtimoiy maqsadini — shaxs, jamiyat va davlatni jinoiy tajovuzlardan himoya qilishni — to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirmaydi. Shu bois doktrinada qator muqobil ta’riflar ilgari surilgan.

B.X.Po‘latov TQFni fuqarolarning hayoti, salomatligi, huquq va erkinliklarini, mulkini, jamiyat va davlat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsadida oshkora va yashirin holda amalga oshiriladigan faoliyat sifatida belgilaydi[5]. O.M.Madaliyev esa ushbu faoliyatning maxsus vakolatli organlar tomonidan «o‘z vakolatlari doirasida» amalga oshirilishini alohida ta’kidlaydi[6].

[4] O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdagi «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-344-son Qonuni, 3-modda // www.lex.uz.
[5] Po‘latov B.X. Prokuror nazorati: darslik. – T.: «O‘zbekiston», 2009. – B. 221.
[6] Madaliyev O.M. Prokuror nazorati: darslik. Maxsus qism. – T.: TDYuI nashriyoti, 2009. – B. 138.

Bizning fikrimizcha, tezkor-qidiruv faoliyati — qonun asosida, fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash maqsadida maxsus vakolat berilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan oshkora va nooshkora usulda olib boriladigan maxsus davlat-huquqiy faoliyatdir. **TQF natijalari** esa tezkor xizmatlar tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish natijasida olingan va ularning rasmiy (yoki maxfiylik grifiga ega) hujjatlarida, shuningdek elektron tashuvchilarda qayd etilgan jinoyat alomatlari, uni sodir etgan shaxslar va boshqa ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmuidir.

TQF natijalaridan foydalanishning **ijtimoiy zaruriyati** quyidagi omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, uyushgan, korrupsiyaviy, giyohvandlik bilan bog‘liq va kiberjinoyatlar yuqori latentlikka ega bo‘lib, ular to‘g‘risidagi dastlabki axborot deyarli har doim nooshkora yo‘l bilan olinadi. **Ikkinchidan,** TQF jinoyatning «issiq izlari»da olib borilib, V.Karimov ta’kidlaganidek, nafaqat jinoyatlarni aniqlash va fosh etish, balki ularga tayyorgarlik ko‘rayotgan va ularni sodir etgan shaxslarni topish vazifasini ham bajaradi; aynan shuning uchun TQF natijalari protsessual qaror qabul qilish uchun sabab va asos bo‘lib xizmat qiladi[7]. **Uchinchidan,** F.M.Muxitdinovning to‘g‘ri qayd etishicha, jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun unga qadar aniqlangan ma’lumotlar mavjud bo‘lishi zarur, ma’lumotlarni aniqlash esa o‘z-o‘zidan muayyan faoliyat yuritishni taqozo etadi[8]. Demak, TQF natijalari jinoyat protsessining ilk qadami, «kirish eshigi» hisoblanadi. **To‘rtinchidan,** jazoning muqarrarligi ta’minlanmagan joyda fuqarolarning davlatga va huquqiy tizimga ishonchi susayadi, bu esa huquqiy nigilizm va kriminogen vaziyatning keskinlashuviga olib keladi.

Foydalanish yo‘nalishi	Mazmuni	Huquqiy asos
Jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun sabab va asos	Jinoyat alomatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tergovga qadar tekshiruv va ish qo‘zg‘atish uchun manba bo‘ladi	JPK 321, 322, 329-moddalari; TQF Qonuni 19-moddasi
Tergov harakatlarini tayyorlash va o‘tkazish	Tintuv, olib qo‘yish, ushlash, tanib olish uchun ko‘rsatish kabi harakatlarning taktikasini belgilash	JPK 38¹, 382-moddalari; TQF Qonuni 19-moddasi
Isbotlashda dalil sifatida foydalanish	JPK talablariga muvofiq taqdim etilgan, tekshirilgan va baholangan natijalar	JPK 81-moddasining 3-qismi, 88, 95-moddalari

[7]Karimov V. Tezkor-qidiruv faoliyati: darslik. – T.: «Lesson Press», 2021. – B. 62.

[8] Muxitdinov F.M. Jinoyat-protsessual shakl: nazariy va metodologik muammolar: yuridik fanlar doktori ... dissertatsiyasi. – T.: O‘zR FA Falsafa va huquq instituti, 2005. – B. 162.

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

Foydalanish yo‘nalishi	Mazmuni	Huquqiy asos
Qidiruv va jinoyatlarning oldini olish	Qochib yurgan shaxslarni qidirish, jinoyatlarga imkon bergan sabab va sharoitlarni bartaraf etish	TQF Qonuni 2, 14-moddalari

1-jadval. Jinoyat protsessida TQF natijalaridan foydalanish yo‘nalishlari

Tadqiqot nazariy-huquqiy va empirik bosqichlarni birlashtirgan. Nazariy bosqichda TQF natijalaridan foydalanishning tushunchaviy apparati va huquqiy asoslar tizimi aniqlandi, empirik bosqichda esa ushbu asoslarning amaliyotda qo‘llanilishi o‘rganildi. Har bir usul muayyan vazifani hal etish uchun qo‘llanildi: **tarixiy-huquqiy** usul — institutning mustaqillik yillaridagi shakllanish bosqichlarini (1992–2025) aniqlash uchun; **formal-mantiqiy** usul — Konstitutsiya, TQF Qonuni, JPK normalari va Oliy sud Plenumi qarorlarining mazmunini talqin qilish, ular o‘rtasidagi ziddiyat va bo‘shliqlarni aniqlash uchun; **tizimli-tarkibiy** usul — huquqiy asoslar ierarxiyasini (2-rasm) qurish va tezkor-qidiruv tadbirlarini konstitutsiyaviy huquqlarga daxli bo‘yicha tasniflash (2-jadval) uchun; **qiyosiy-huquqiy** usul — xorijiy davlatlarning huquqiy modellarini solishtirish uchun.

Tadqiqotning **normativ bazasini** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi *(2023)*, «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun *(2012)*, JPK va unga 2020–2024-yillarda kiritilgan o‘zgartishlar *(O‘RQ-651, O‘RQ-675, O‘RQ-1003-son qonunlar)*, Prezidentning PF-60 va PF-89-son farmonlari, Oliy sud Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-son va 2023-yil 23-iyundagi 16-son qarorlari, shuningdek xalqaro hujjatlar *(Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Budapesht konvensiyasi, BMTning 2024-yilgi Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyasi)* tashkil etdi.

Qiyosiy tahlil uchun davlatlar uch mezon asosida tanlandi: **(1)** O‘zbekiston bilan umumiy huquqiy an’anaga ega MDH va qo‘shni davlatlar (Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina, Qirg‘iziston, Tojikiston, Belarus, Ozarbayjon, Gruziya, Moldova); **(2)** turli huquqiy oilalarni ifodalovchi rivojlangan davlatlar (anglo-sakson tizimidan AQSh va Buyuk Britaniya, kontinental tizimdan Germaniya va Fransiya); **(3)** xalqaro standartlar manbai sifatida Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi (IHYeS) amaliyoti. Har bir davlat qonunchiligi to‘rt parametr bo‘yicha solishtirildi: huquqiy asos, konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi tadbirlarga ruxsat beruvchi sub’ekt, natijalarning isbotlashdagi maqomi va nazorat mexanizmlari.

TQF natijalaridan foydalanishning huquqiy asoslari ko‘p darajali tizimni tashkil etadi: Konstitutsiya — xalqaro-huquqiy hujjatlar — kodekslar va qonunlar — Prezident farmonlari — Oliy sud Plenumi qarorlari — idoraviy normativ hujjatlar. Ushbu tizimning cho‘qqisida Konstitutsiya turadi va uning normalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi.

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

Oliy sud Plenumi 2023-yil 23-iyundagi 16-son qarori bilan sudlarga odil sudlovni amalga oshirishda Konstitutsiya normalarini bevosita qo‘llash tartibini tushuntirib berdi[9].



2-rasm. TQF natijalaridan foydalanish huquqiy asoslarining ierarxiyasi. Muallif ishlanmasi.

Xalqaro-huquqiy darajada Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi va O‘zbekiston 1995-yilda qo‘shilgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning (FSHXP) 17-moddasi hech kim shaxsiy va oilaviy hayotiga, uy-joy daxlsizligiga yoki yozishmalari siriga o‘zboshimchalik bilan yoki g‘ayriqonuniy aralashuvga duchor bo‘lmasligini belgilaydi[10]. BMT Inson huquqlari qo‘mitasi 17-moddaga oid 16-son Umumiy sharhida aralashuv faqat qonunda aniq nazarda tutilgan, maqsadga mutanosib va muayyan ish holatlarida asosli bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan[11]. BMTning 1990-yilda qabul qilingan jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha hujjatlarida ham inson huquqlariga rioya qilingan holda telekommunikatsiya xabarlarini qo‘lga kiritish va elektron kuzatuvdan samarali usul sifatida foydalanish mumkinligi e’tirof etilgan[12]. Shuningdek, 2019-yil 2-iyuldagi «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi O‘RQ-547-son Qonun TQF natijasida olinadigan shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlash va

[9] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi «Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 16-son qarori // www.lex.uz.

[10] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), 12-modda; Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966), 17-modda // www.lex.uz.

[11] UN Human Rights Committee. General Comment No. 16: Article 17 (Right to Privacy). 8 April 1988.

[12] Karimov V. Tezkor-qidiruv faoliyati: darslik. – T.: «Lesson Press», 2021. – B. 122.

saqlashning umumiy talablarini belgilaydi[13]. Huquqiy asoslar tizimining ierarxiyasi 2-rasmda ko‘rsatilgan.

2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya TQF sohasi uchun bir necha tamal normalarni mustahkamladi[14]. Xususan, 27-moddada sud qarorisiz shaxsni qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turish mumkin emasligi; 28-moddada aybsizlik prezumpsiyasi; 29-moddada odil sudlovni amalga oshirishda qonunni buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi; 31-moddada har kimning yozishmalar, telefon orqali so‘zlashuvlar, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqi, turar joy daxlsizligi va shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish huquqi belgilangan. Muhimi, ushbu huquqlarni cheklashga faqat qonunga muvofiq va sud qarori asosida yo‘l qo‘yilishi konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarildi. Demak, TQF natijalarini dalil sifatida qo‘llashning birinchi va shartsiz mezoni — ularning Konstitutsiya va qonun talablariga so‘zsiz muvofiqligidir.

Konstitutsiyaning 20-moddasi TQF sohasi uchun metodologik ahamiyatga ega uchta qoidani mustahkamlaydi: inson huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat zarur bo‘lgan darajada cheklanishi mumkin; davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi shart; inson bilan davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarda qonunchilikdagi barcha ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi[15]. Bundan TQF natijalaridan foydalanish uchun muhim xulosalar kelib chiqadi. **Birinchidan,** yashirin tadbir faqat boshqa, huquqlarni kamroq cheklovchi usullar bilan maqsadga erishib bo‘lmagan taqdirda qo‘llanilishi kerak (zaruriylik testi). **Ikkinchidan,** tadbirning davomiyligi va qamrovi jinoyatning og‘irligiga mutanosib bo‘lishi lozim (mutanosiblik testi). **Uchinchidan,** TQF natijasining qonuniyligi yoki kelib chiqishi bo‘yicha bartaraf etilmagan shubhalar ayblanuvchi foydasiga talqin qilinadi. Shu ma’noda, TQF natijalaridan foydalanish instituti Konstitutsiya va qonunlarga so‘zsiz bo‘ysunishning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, qonun ustuvorligi va inson huquqlari ustuvorligini birdek ta’minlashi kerak.

Tarmoq qonunchiligida asosiy o‘rinni «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun egallaydi. Uning 5-moddasida qonuniylik, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish hamda oshkora va nooshkora usullar uyg‘unligi prinsiplari, 14-moddasida 16 turdagi tezkor-qidiruv tadbiri (TQT), 16-moddasida konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi tadbirlarni o‘tkazish shartlari, 19-moddasida esa TQF natijalaridan foydalanish tartibi mustahkamlangan[16]. JPKda esa TQF natijalarining isbotlashdagi maqomi bir qator normalar orqali belgilanadi.

TQF Qonunining 14-moddasida sanab o‘tilgan tadbirlarni konstitutsiyaviy huquqlarga daxl qilish darajasi va natijalarning odatiy shakli bo‘yicha tasniflash ulardan foydalanishda qo‘llanadigan kafolatlarni farqlash imkonini beradi (2-jadval).

[13]O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi O‘RQ-547-son Qonuni // www.lex.uz.
[14]O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel, yangi tahrir) // www.lex.uz.
[15]O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), 20-modda // www.lex.uz.
[16]O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni, 5, 14, 16, 19-moddalar (2024-yil 14-martdagi O‘RQ-920-son Qonun bilan kiritilgan o‘zgarishlar hisobga olingan holda) // www.lex.uz.

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

Tahlil ko‘rsatadiki, 16 ta tadbirning qariyb yarmi bevosita Konstitutsiyaning 31-moddasida kafolatlangan huquqlarga daxl qiladi, deyarli barchasining natijalari esa bugungi kunda to‘liq yoki qisman raqamli shaklda qayd etiladi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari (TQF Qonuni 14-m.)	**Daxl qilinadigan huquq (Konstitutsiya)**	**Natijalarning odatiy shakli**
So‘rov; ma’lumotlar to‘plash; shaxsning aynanligini aniqlash; qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig‘ish	Bevosita daxl yo‘q (bank siri, shaxsga doir ma’lumotlar — 31-m.)	Ma’lumotnoma, tushuntirish, elektron so‘rov javoblari
Tekshirish uchun xarid qilish; nazorat ostida olish; nazorat ostida yetkazib berish; predmetlar va hujjatlarni tekshirish	Mulk huquqi, shaxsiy daxlsizlik (qisman)	Dalolatnoma, predmetlar, audio-videoyozuv
Tezkor kuzatuv	Shaxsiy hayot daxlsizligi (31-m.)	Foto-, videoyozuv, geolokatsiya ma’lumotlari
Turar joylarni, binolar va transport vositalarini tekshirish	Turar joy daxlsizligi (31-m.)	Dalolatnoma, fotojadval, videoyozuv
Pochta va boshqa jo‘natmalarni nazorat qilish	Yozishmalar siri (31-m.)	Nusxalar, elektron xabarlar
Telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali so‘zlashuvlarni eshitib turish; abonentlar bog‘lanishlari to‘g‘risida axborot olish	Telefon so‘zlashuvlari va elektron xabarlar siri (31-m.)	Fonogramma, trafik va billing ma’lumotlari (raqamli)
Tezkor kiritish; niqoblangan operatsiya; tezkor eksperiment	Shaxsiy daxlsizlik; provokatsiya xavfi (29-m., JPK 88-m.)	Hisobot, audio-videoyozuv, raqamli yozishmalar

2-jadval. Tezkor-qidiruv tadbirlarining konstitutsiyaviy huquqlarga daxli va natijalar shakli bo‘yicha tasnifi

Shuni alohida qayd etish joizki, muallifning ilmiy takliflari asosida 2021-yil 18-fevraldagi O‘RQ-675-son Qonun bilan JPKga uchta muhim norma kiritildi[17]: (1) 81-moddaning 3-qismi —

[17] O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-675-son Qonuni // www.lex.uz; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo‘mitasining 2021-yil 23-apreldagi 05/1-01-81-son ma’lumotnomasi.

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

TQT natijalari faqat qonun talablariga muvofiq olingan, JPK normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyingina dalil sifatida tan olinishi mumkinligi; (2) 39²-moddaning 6-qismi — gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan TQFni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxslari tomonidan ariza, tushuntirish yoki ko‘rsatuv olish faqat ish o‘z yurituvida bo‘lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsati bilan amalga oshirilishi; (3) 88-moddaning 2-qismi — shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash (provokatsiya) orqali olingan dalillardan foydalanishning taqiqlanishi. Bu normalar TQF natijalaridan foydalanishda jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatiga aylandi.

Sud amaliyotini yagona tartibga solishda Oliy sud Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-son qarori muhim ahamiyatga ega. Unda dalillar maqbul emas deb topiladigan holatlar qatorida ma’lumotlar «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun talablari buzilgan holda to‘planganligi, shuningdek raqamli (elektron) tashuvchilardagi ma’lumotlar mutaxassis ishtirokisiz olib qo‘yilganligi yoki ko‘zdan kechirilganligi alohida ko‘rsatilgan[18].

2020-yil 30-noyabrdagi O‘RQ-651-son Qonun bilan telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish natijasida olingan axborotni majburiy qayd etish (yozib olish) va uni bayonnomaga ilova qilish tartibi joriy etildi[19].

Prezidentning 2024-yil 10-iyundagi PF-89-son Farmoni bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab tuman (shahar) jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarida tergov sudyasi lavozimi joriy etilib, qamoqqa olish, tintuv, so‘zlashuvlarni eshitib turish, mol-mulkni xatlash kabi masalalarda sanksiya berish vakolati sudga o‘tkazildi[20]. Ushbu normativ bazaning shakllanish dinamikasi 3-rasmda aks ettirilgan.



3-rasm. TQF natijalaridan foydalanishning milliy huquqiy asoslari rivojlanishi (1994–2025-yillar). Muallif ishlanmasi.

[18] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi «Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 24-son qarori, 9-band // www.lex.uz.

[19] O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-noyabrdagi «Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga qaratilgan qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-651-son Qonuni // www.lex.uz.

[20] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi PF-89-son Farmoni // www.lex.uz; В судах вводится должность следственного судьи // norma.uz.

Xalqaro huquqda TQF vositalaridan foydalanish inson huquqlariga rioya etilishi sharti bilan qonuniy deb e'tirof etilgan. Xususan, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (IHYeS) amaliyotida uch muhim standart shakllangan: (1) yashirin tadbirlar aniq, oldindan ma'lum va sifatli qonunga asoslanishi («qonun sifati» talabi); (2) davlat agenti tomonidan jinoyatga undash (entrapment) natijasida olingan dalillardan foydalanish sud jarayonining odilligini buzishi[21]; (3) yashirin yozuvdan dalil sifatida foydalanish o'z-o'zidan 6-modda buzilishini anglatmaydi, agar himoyaga uni tortishish va ishonchliligini tekshirish imkoniyati berilgan bo'lsa[22].

MDH davlatlari tajribasida ikki asosiy model kuzatiladi. Birinchi — **«legallashtirish» modeli**: Rossiya Federatsiyasida TQF 1995-yil 12-avgustdagi 144-FZ-son Federal qonun bilan tartibga solinadi, uning 11-moddasi natijalardan foydalanish yo'nalishlarini belgilaydi, JPKning 89-moddasi esa dalillarga qo'yiladigan talablarga javob bermaydigan TQF natijalaridan isbotlashda foydalanishni taqiqlaydi[23]. Natijalarni surishtiruvchi, tergovchi va sudga taqdim etish tartibi 2013-yil 27-sentabrdagi idoralararo Yo'riqnoma bilan batafsil reglamentlangan [24]. O'zbekiston ham asosan shu modelga yaqin. Ikkinchi — **«protsessual integratsiya» modeli**: Ukrainada 2012-yilgi JPK bilan «yashirin tergov-qidiruv harakatlari» (негласні слідчі (розшукові) дії) instituti (21-bob, 246–275-moddalar) joriy etilib, ular natijalari to'g'ridan-to'g'ri dalil sifatida qabul qilinadi va tergov sudyasi ruxsati bilan o'tkaziladi[25]. Qozog'istonda 2014-yilgi JPKning 30-bobi bilan «yashirin tergov harakatlari» tizimi yaratildi[26], Qirg'izistonda esa 2021-yilgi JPKda «maxsus tergov harakatlari» instituti mustahkamlandi[27].

Qo'shni davlatlar qonunchiligida bizning tizimimiz uchun ahamiyatli bo'lgan alohida yechimlar ham mavjud. Tojikiston Respublikasining TQF to'g'risidagi Qonunida TQF natijalari dalil sifatida qo'llanilgan taqdirda tezkor organ mansabdor shaxslari ularning haqiqiyligi va kelib chiqishi haqida so'roq qilinishi mumkinligi, maxfiy hamkorlar esa faqat yozma roziligi bilan so'roq qilinishi belgilangan [28]. Belarus Respublikasi Qonunida esa natijalardan foydalanish yo'nalishlari (jinoyat ishi qo'zg'atish, tergov harakatlarini tayyorlash, dalillar to'plash, xorijiy maxsus xizmatlar so'rovlarini ijro etish) to'liq sanab o'tilgan[29].

---

[21]Teixeira de Castro v. Portugal, no. 25829/94, ECHR, 9 June 1998; Ramanauskas v. Lithuania [GC], no. 74420/01, ECHR 2008-I (5 February 2008).

[22]Khan v. the United Kingdom, no. 35394/97, ECHR 2000-V (12 May 2000); Bykov v. Russia [GC], no. 4378/02, 10 March 2009.

[23] Федеральный закон РФ от 12.08.1995 № 144-ФЗ «Об оперативно-розыскной деятельности», ст. 11; Уголовно-процессуальный кодекс РФ от 18.12.2001 № 174-ФЗ, ст. 89.

[24]Инструкция о порядке представления результатов оперативно-розыскной деятельности органу дознания, следователю или в суд (утв. приказом МВД России № 776, Минобороны России № 703, ФСБ России № 509 и др. от 27.09.2013).

[25]Кримінальний процесуальний кодекс України від 13.04.2012 № 4651-VI, гл. 21, ст. 246–275.

[26] Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 04.07.2014 № 231-V, гл. 30 «Негласные следственные действия».

[27]Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 28.10.2021 № 129.

[28] Закон Республики Таджикистан от 25.03.2011 № 687 «Об оперативно-розыскной деятельности» // www.ncz.tj.

[29] Закон Республики Беларусь от 15.07.2015 № 307-З «Об оперативно-розыскной деятельности» // www.pravo.by.

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda TQF va tergov o‘rtasidagi chegara ancha shartli. AQShda yagona TQF qonuni mavjud emas; aloqa kanallarini eshitib turish 1968-yilgi Omnibus qonunining III bo‘limi (18 U.S.C. §§ 2510–2523) bilan tartibga solinadi va faqat sud orderi asosida o‘tkaziladi, qonun talablari buzilgan holda olingan materiallar esa istisno qoidasi (exclusionary rule) bo‘yicha dalillar tarkibidan chiqariladi (§ 2518(10)(a))[30]. AQSh Oliy sudi raqamli davrda maxfiylik kafolatlarini kengaytirib, mobil telefon tarkibini ko‘rish va uyali aloqa joylashuv ma’lumotlarini olish uchun orderni talab qildi[31]. Buyuk Britaniyada yashirin kuzatuv va maxfiy manbalardan foydalanish 2000-yilgi RIPA bilan, kommunikatsiyalarni to‘xtatish esa 2016-yilgi Tergov vakolatlari to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinadi; ushbu qonunning 56-bo‘limi to‘xtatilgan kommunikatsiyalar mazmunini sud jarayonida dalil sifatida ishlatishni umuman taqiqlaydi, sud esa 1984-yilgi PACE qonunining 78-bo‘limiga ko‘ra odillikka zid dalillarni chiqarib tashlash huquqiga ega[32]. Germaniyada esa telekommunikatsiyalarni kuzatish (StPO § 100a), onlayn-tintuv (§ 100b) va yashirin tergovchi (§ 110a) protsessual kodeksga kiritilgan bo‘lib, sud qarori bilan o‘tkaziladi va natijalari dalil sifatida qo‘llaniladi; politsiya huquqi asosida olingan ma’lumotlardan jinoyat ishida foydalanish esa «gipotetik muqobil aralashuv» mezoni bilan cheklanadi (§ 161 Abs. 3)[33]. Fransiyada aloqa vositalarini to‘xtatish JPKning 100–100-8-moddalari bilan tergov sudyasi nazoratida amalga oshiriladi[34].

Davlat	Huquqiy asos	Konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi tadbirlarga ruxsat	Natijalarning isbotlashdagi maqomi
O‘zbekiston	TQF Qonuni (2012); JPK 81(3), 88(2)	Prokuror sanksiyasi (TQF Qonuni 16-m.); tergov harakatlari — tergov sudyasi (2025)	JPK bo‘yicha tekshirilib, baholangandan keyin dalil
Rossiya	144-FZ (1995); JPK 89-m.; Yo‘riqnoma (2013)	Sud qarori	Dalillarga qo‘yiladigan talablarga javob bersa
Qozog‘iston	JPK (2014), 30-bob	Tergov sudyasi / prokuror	Yashirin tergov harakati sifatida bevosita dalil
Ukraina	JPK (2012), 21-bob	Tergov sudyasi	Bevosita dalil (protokol, ilovalar)

[30]18 U.S.C. §§ 2510–2523 (Title III of the Omnibus Crime Control and Safe Streets Act of 1968); Katz v. United States, 389 U.S. 347 (1967).

[31]Riley v. California, 573 U.S. 373 (2014); Carpenter v. United States, 585 U.S. 296 (2018).

[32]Regulation of Investigatory Powers Act 2000, Part II; Investigatory Powers Act 2016, s. 56; Police and Criminal Evidence Act 1984, s. 78.

[33]Strafprozessordnung (StPO), §§ 100a, 100b, 110a, 161 Abs. 3; Roxin C., Schünemann B. Strafverfahrensrecht. 29. Aufl. – München: C.H.Beck, 2017.

[34]Code de procédure pénale (France), art. 100 à 100-8.

Davlat	Huquqiy asos	Konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi tadbirlarga ruxsat	Natijalarning isbotlashdagi maqomi
AQSh	18 U.S.C. §§ 2510–2523	Sud orderi	Dalil; buzilgan holda — istisno qoidasi
Buyuk Britaniya	RIPA 2000; IPA 2016	Vazir va sudya-komissar («double lock»)	To‘xtatilgan kommunikatsiya mazmuni dalil emas (s. 56)
Germaniya	StPO §§ 100a–100b, 110a	Sud qarori	Dalil; foydalanishga cheklovlar mavjud

3-jadval. TQF (yashirin tadbirlar) natijalaridan foydalanishning qiyosiy-huquqiy modellari

IHYeS amaliyoti yashirin kuzatuv ustidan nazorat mexanizmlariga ham aniq talablar qo‘ygan. Klass va boshqalar Germaniyaga qarshi ishida sud yashirin kuzatuv demokratik jamiyatda faqat suiiste’mollikdan samarali himoya kafolatlari mavjud bo‘lgandagina joiz ekanligini ko‘rsatgan[35]. Roman Zaxarov Rossiyaga qarshi ishida esa tadbirni o‘tkazish asoslari, muddatlari, olingan ma’lumotlarni saqlash va yo‘q qilish tartibi, mustaqil nazorat va shaxsni keyinchalik xabardor qilish mexanizmlarining yetarli emasligi Konvensiyaning 8-moddasini buzish deb topilgan[36]. Big Brother Watch va boshqalar Birlashgan Qirollikka qarshi ishida ommaviy (bulk) ma’lumot to‘plash rejimlari uchun «oxirigacha kafolatlar» (end-to-end safeguards) standarti shakllantirilgan[37]. Rivojlangan davlatlarda ushbu standartlar mustaqil va parlament nazorati bilan to‘ldiriladi: Germaniyada G10-komissiya, Buyuk Britaniyada Tergov vakolatlari bo‘yicha komissar idorasi (IPCO), Fransiyada razvedka usullarini nazorat qilish bo‘yicha milliy komissiya (CNCTR) faoliyat ko‘rsatadi. Tadbirlarning qonuniyligi va asosliligini nazorat qilishda mustaqil komissiyalar, maxsus mansabdor shaxslar va parlament a’zolarining ishtiroki ularning umumiy xususiyati hisoblanadi.

Qo‘shni va MDH davlatlarining boshqa tajribasi ham e’tiborga loyiq. Ozarbayjonda konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi tadbirlar sud qarori bilan o‘tkaziladi, faqat davlat suvereniteti va jamoat xavfsizligiga tahdid, qochib yurganlarni ushlash kabi kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda sudya qarorisiz boshlanishiga yo‘l qo‘yiladi[38]. Gruziyada so‘zlashuvlar sirini cheklovchi tadbirlar sudya buyrug‘i bilan ruxsat etiladi, Moldovada esa bunday tadbirlar faqat og‘ir jinoyatlar bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin. Umuman, MDH mamlakatlarining bir qismida konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi TQTlarga ruxsatni hanuz prokuror beradi, biroq so‘nggi o‘n yillikda sud ruxsatiga o‘tish tendensiyasi kuchaymoqda.

[35]Klass and Others v. Germany, no. 5029/71, 6 September 1978, Series A no. 28.
[36]Roman Zakharov v. Russia [GC], no. 47143/06, 4 December 2015.
[37]Big Brother Watch and Others v. the United Kingdom [GC], nos. 58170/13, 62322/14, 24960/15, 25 May 2021.
[38]Закон Азербайджанской Республики «Об оперативно-розыскной деятельности» // www.e-qanun.az.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, dunyoda **TQFning protsessuallashuvi** — yashirin tadbirlarning jinoyat-protsessual qonunchilikka integratsiyasi va sud nazorati ostiga o‘tishi — barqaror tendensiyaga aylangan. A.R.Kuziyev ham bir qator davlatlar qonunchiligida TQF va jinoyat-protsessual qonunchiligi yaqinlashayotganini qayd etadi[39]. O‘zbekistonda tergov sudyasi institutining joriy etilishi ushbu tendensiyaga mos keladi, biroq TQF Qonunining 16-moddasida konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi tadbirlar uchun prokuror sanksiyasi saqlanib qolganligi Konstitutsiyaning 31-moddasi talablari bilan to‘liq uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Muallif tomonidan tergov qilingan 400 dan ortiq jinoyat ishi, respublika sudlarining 100 dan ortiq hukmi hamda tezkor bo‘linmalar tomonidan TQF natijalarini tergov organlariga taqdim etish amaliyotining tahlili bir qator takrorlanuvchi muammolarni aniqlash imkonini berdi[40].

Birinchi muammo — TQT natijalari qayd etilgan tezkor xizmat hujjatlarining (ko‘zdan kechirish va texnik vositalarni qo‘llash dalolatnomalari, tushuntirish xatlari, so‘rov natijalari bo‘yicha yakuniy ma’lumotnomalar, muhrlangan namunalar, audio-, video- va fotomateriallar) keyingi protsessual taqdiri. Amaldagi tartibga ko‘ra, TQFni amalga oshiruvchi organ rahbari taqdimnoma chiqarib, materiallarni tergovchiga JPKning 198 va 200-moddalari asosida taqdim etadi yoki tergovchi ularni 199 va 203-moddalarga muvofiq talab qilib oladi. Biroq bu hujjatlarning qaysi biri qaysi dalil turiga (hujjat, ashyoviy dalil, raqamli dalil) aylanishi qonunda aniq belgilanmagan.

Ikkinchi muammo — natijalarni jo‘natish usuli (pochta orqali, shaxsan topshirish va h.k.) har bir holatda idoraviy hujjatlarga ko‘ra TQF organi tomonidan tanlanadi, bu esa saqlash zanjirining uzilishi va materiallar yaxlitligiga shubha tug‘ilishi xavfini oshiradi. **Uchinchi muammo** — TQT natijasida olingan fonogrammalar, videoyozuvlar va kompyuter axborot tashuvchilari ilova qilinayotganda ularni olish vaqti, joyi, qo‘llangan texnik vositalar va qayd etish shartlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘pincha to‘liq aks ettirilmaydi. **To‘rtinchi muammo** — tergov organi talab qilmagan asl materiallar hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar TQF organida saqlanadi, bu esa himoya tomonining ular bilan tanishish imkoniyatini cheklaydi.

Sud tergovi davomida taraflar tomonidan TQF natijalari asosidagi dalillarning soxtalashtirilganligi yoki ish holatlariga nomuvofiqligi to‘g‘risidagi e’tirozlar tobora ko‘p bildirilmoqda. Rasmiylashtirishdagi kamchiliklar — imzo va sanalarning yo‘qligi, taqdimnomada materiallar ro‘yxatining noto‘liqligi, maxfiylikdan chiqarish to‘g‘risidagi qarorning yo‘qligi, mutaxassis ishtirokisiz elektron tashuvchilarni ko‘zdan kechirish — amalda dalilning nomaqbul deb topilishiga olib kelmoqda. Tezkor va tergov bo‘linmalari o‘rtasidagi hamkorlik ko‘p hollarda yagona maqsad yo‘lida yaqinlashish o‘rniga, bir-biriga parallel faoliyat ko‘rinishini olmoqda. Bu holatlar TQF natijalarini taqdim etish va rasmiylashtirishning yagona, qonun darajasidagi standartini ishlab chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda TQF natijalarining katta qismi elektron shaklda — telekommunikatsiya so‘zlashuvlari yozuvlari, abonentlar bog‘lanishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, videokuzatuv

[39] Kuziyev A.R. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va tergov bo‘linmalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yangi tendensiyalari // Yurist axborotnomasi. – 2020. – № 6. – 1-jild. – B. 121.
[40] Xaydarov M.M. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. – 2.1–2.3-paragraflar.

yozuvlari, elektron yozishmalar, bank tranzaksiyalari va virtual aktivlar bo‘yicha ma’lumotlar ko‘rinishida olinmoqda. TQF Qonunining 14-moddasida nazarda tutilgan 16 ta tadbirdan kamida beshtasi (ma’lumotlar to‘plash, tezkor kuzatuv, pochta va boshqa jo‘natmalarni nazorat qilish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali so‘zlashuvlarni eshitib turish, abonentlarning bog‘lanishlari to‘g‘risida axborot olish) bevosita raqamli ma’lumotlar bilan bog‘liq.

Ushbu muammoni hal etish yo‘lida 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-son Qonun muhim qadam bo‘ldi[41]. Qonun bilan JPKga «elektron ma’lumotlar» (204¹-modda) va «raqamli dalillar» (204²-modda) tushunchalari kiritildi: ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lgan elektron ma’lumotlar, shu jumladan elektron fayllar, audio- va videoyozuvlar raqamli dalillar deb e’tirof etildi. Shuningdek, raqamli dalillarni olish, taqdim etish, tekshirish, saqlash, qaytarish va yo‘q qilish tartibi belgilanib, nusxaning yaxlitligi va asl nusxaga aynan o‘xshashligi ta’minlangan taqdirda undan foydalanishga ruxsat berildi; qog‘ozga chiqarilgan nusxa esa mustaqil yozma dalil hisoblanmasligi qayd etildi[42]. Qonun loyihasini muhokama qilish jarayonida raqamli dalillarning yagona reyestrini yaratish rejalashtirilgani ham ta’kidlangan[43].

Xalqaro darajada raqamli dalillar bilan ishlash standartlari Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlar to‘g‘risidagi Budapesht konvensiyasi (2001)[44] va BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2024-yil 24-dekabrda qabul qilingan Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi BMT konvensiyasida[45] mustahkamlangan: kompyuter ma’lumotlarini tezkor saqlash (preservation), trafik ma’lumotlarini qisman oshkor qilish, abonent ma’lumotlarini taqdim etish to‘g‘risidagi buyruq, real vaqtda trafikni yig‘ish va kontentni to‘xtatish. E.Keysi va S.Meyson asarlarida raqamli dalilning ishonchliligi uning **saqlash zanjiri** (chain of custody) uzluksizligi, kriptografik xesh-summalar orqali yaxlitligini tasdiqlash va tekshiriladigan metodologiyaga asoslanishi bilan belgilanishi ko‘rsatilgan[46].

Raqamli TQF natijalarining o‘ziga xos xususiyatlari — ularning hajmi, o‘zgaruvchanligi, ko‘pincha xorijiy serverlarda saqlanishi va shifrlanganligi — alohida huquqiy yechimlarni talab qiladi.

---

[41] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-1003-son Qonuni // www.lex.uz.

[42] Raqamli dalillar qanday tartibda taqdim etiladi // norma.uz; Parlamentda raqamli dalillar to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi // kun.uz, 2024-yil 27-avgust.

[43] Законодательная палата вносит понятие «цифровое доказательство» в законодательство Узбекистана // podrobno.uz, 27.08.2024.

[44] Convention on Cybercrime, Budapest, 23 November 2001 (ETS No. 185), arts. 16–21.

[45] United Nations Convention against Cybercrime; Strengthening International Cooperation for Combating Certain Crimes Committed by Means of Information and Communications Technology Systems and for the Sharing of Evidence in Electronic Form of Serious Crimes. UN GA Resolution 79/243 of 24 December 2024.

[46] Casey E. Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers and the Internet. 3rd ed. – Waltham: Academic Press, 2011; Mason S., Seng D. (eds.) Electronic Evidence and Electronic Signatures. 5th ed. – London: University of London Press, 2021.

Yevropa Ittifoqida 2023-yil 12-iyulda qabul qilingan elektron dalillar to‘g‘risidagi 2023/1543-son Reglament xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuboriladigan Yevropa taqdim etish va saqlash buyruqlari institutini joriy etdi[47]. Ushbu tajriba transchegaraviy raqamli ma’lumotlarni tezkor qo‘lga kiritish va ularning maqbulligini ta’minlash uchun O‘zbekiston ham xalqaro hamkorlik mexanizmlarini (o‘zaro huquqiy yordam, 24/7 aloqa nuqtalari) rivojlantirishi zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ommaviy raqamli ma’lumotlarni olishda ish uchun ahamiyatsiz shaxsiy ma’lumotlarning keraksiz to‘planishini oldini olish maqsadida «ma’lumotlarni minimallashtirish» va maqsadga mutanosiblik prinsiplari qonun darajasida mustahkamlanishi lozim.

Amaliyotni tahlil qilish TQF bilan bog‘liq raqamli natijalarda quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatdi: (a) TQF Qonunida raqamli natijalarni qayd etish, xesh-summa hisoblash va saqlash zanjirini hujjatlashtirish majburiyati yo‘q; (b) TQF natijalarini taqdim etish tartibi elektron formatlar, metama’lumotlar va dasturiy vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olmaydi; (c) JPKning yangi 204¹–204²-moddalari asosan tergov va sud bosqichiga qaratilgan bo‘lib, tezkor bo‘linma tomonidan olingan raqamli ma’lumotlarning «tezkor bosqichdan protsessual bosqichga» o‘tish nuqtasi reglamentlanmagan; (d) raqamli natijalarni tizimlashtirish (kataloglash, indekslash, idoralararo almashinish) uchun yagona elektron platforma to‘liq ishga tushirilmagan. Raqamli TQF natijalari bilan ishlash bosqichlari va ularga qo‘yiladigan talablar 5-jadvalda umumlashtirilgan.

Bosqich	**Asosiy talablar**	**Taklif etilayotgan normativ yechim**
1. Olish (TQT)	Qonuniy asos; sanksiya/sud ruxsati; mutaxassis ishtiroki; asl ma’lumotning xesh-summasini hisoblash	TQF Qonuniga raqamli natijalarni qayd etish to‘g‘risidagi modda kiritish
2. Qayd etish va saqlash	Saqlash zanjiri jurnali; muhrlangan tashuvchi yoki himoyalangan server; kirish huquqlarini cheklash	Idoralararo yo‘riqnomada «raqamli saqlash zanjiri» shaklini tasdiqlash
3. Taqdim etish	Taqdimnoma; metama’lumotlar; dasturiy vosita va xesh-summa to‘g‘risida ma’lumot; maxfiylikdan chiqarish	JPK 204²-moddasiga TQF natijalari uchun alohida qism qo‘shish

[47]Regulation (EU) 2023/1543 of the European Parliament and of the Council of 12 July 2023 on European Production Orders and European Preservation Orders for electronic evidence in criminal proceedings // OJ L 191, 28.7.2023.

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

Bosqich	Asosiy talablar	Taklif etilayotgan normativ yechim
4. Tekshirish	Ko‘zdan kechirish, kompyuter-texnik ekspertiza, yaxlitlikni qayta tasdiqlash, himoyaga tanishish imkoniyati	Himoyachining asl fayl nusxasini olish huquqini mustahkamlash
5. Tizimlashtirish	Kataloglash, indekslash, yagona elektron reyestrga kiritish, saqlash muddatlari	Raqamli dalillar yagona reyestri to‘g‘risidagi nizomni qabul qilish

5-jadval. TQF natijasida olingan raqamli ma’lumotlarni dalilga aylantirish bosqichlari va talablar

O‘tkazilgan tahlil asosida TQF natijalaridan foydalanishning huquqiy asoslarida quyidagi tizimli kamchiliklar aniqlandi.

Birinchidan, TQF Qonunining 19-moddasi natijalardan foydalanishning umumiy yo‘nalishlarini belgilasa-da, ularni dalilga aylantirish mezonlari, taqdim etish tartibi va maxfiylikdan chiqarish shartlari qonun darajasida emas, balki idoraviy hujjatlar darajasida tartibga solinadi. Bu Konstitutsiyaning 29-moddasidagi «qonunni buzgan holda olingan dalillar» tushunchasini qo‘llashda noaniqlik tug‘diradi.

Ikkinchidan, tergov harakatlari uchun tergov sudyasi instituti joriy etilgan bo‘lsa-da, xuddi shu konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi TQTlar (turar joyni tekshirish, so‘zlashuvlarni eshitib turish, pochta jo‘natmalarini nazorat qilish) uchun TQF Qonunining 16-moddasida prokuror sanksiyasi saqlanib qolmoqda. Natijada bir xil huquq cheklovi tergov harakati sifatida o‘tkazilganda sud, TQT sifatida o‘tkazilganda esa prokuror nazoratida bo‘ladi — bu yagona standart prinsipiga zid.

Uchinchidan, JPK 88-moddasining 2-qismi provokatsiya orqali olingan dalillarni taqiqlasa-da, qonunda provokatsiya va qonuniy tezkor eksperiment yoki niqoblangan operatsiya o‘rtasidagi chegarani belgilovchi mezonlar yo‘q. IHYeS amaliyotidagi «sof passiv tergov» testi (shaxsda jinoiy niyat oldindan mavjud bo‘lganmi, agent jinoyatga faol undaganmi) milliy qonunchilik va sud amaliyotiga to‘liq implementatsiya qilinmagan.

To‘rtinchidan, tezkor xodimlar va maxfiy hamkorlarni TQF natijalarining kelib chiqishi haqida so‘roq qilish tartibi, ularning shaxsini himoya qilish bilan himoya tomonining tortishuv huquqi o‘rtasidagi muvozanat mexanizmi aniq belgilanmagan. **Beshinchidan**, yuqorida qayd etilganidek, raqamli TQF natijalarining tezkor bosqichdan protsessual bosqichga o‘tishi va yagona tizimlashtirilishi to‘liq reglamentlanmagan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar quyida keltirilgan.

Oltinchidan, TQF natijasida huquqlari cheklangan shaxsni tadbir tugaganidan keyin xabardor qilish mexanizmi mavjud emas.

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

IHYeS amaliyotiga ko‘ra, bunday xabardor qilish tergov maqsadlariga zarar yetkazmaydigan bosqichda amalga oshirilishi va shaxsga sudga shikoyat qilish imkonini berishi kerak.

Yettinchidan, TQF ustidan idoraviy va prokuror nazorati mavjud bo‘lsa-da, mustaqil (parlament yoki sud) nazorati va o‘tkazilgan TQTlar to‘g‘risidagi umumlashtirilgan statistik ma’lumotlarni ochiq e’lon qilish amaliyoti yo‘q, bu esa jamiyat ishonchini mustahkamlashga to‘sqinlik qiladi.

Aniqlangan huquqiy va amaliy muammolarni to‘g‘ri baholash uchun ularni ilmiy adabiyotda shakllangan yondashuvlar bilan qiyoslash zarur. Bu, eng avvalo, TQF natijalarining isbotlashdagi maqomi masalasiga taalluqli.

TQF natijalarining isbotlashdagi maqomi masalasida olimlar qarashlarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin (4-rasm).



4-rasm. TQF natijalarining isbotlashdagi maqomi bo‘yicha ilmiy yondashuvlar tasnifi. Muallif ishlanmasi.

Birinchi guruh vakillari TQF natijalaridan dalil sifatida keng foydalanish tarafdorlaridir. Rossiyalik olim D.I.Bednyakov protsessual bo‘lmagan axborotdan foydalanmasdan protsessual faoliyat imkonsiz va samarasiz ekanligini asoslagan[48]. I.L.Petruxin esa bundan ham uzoqqa borib, kelajakda TQFni jinoyatlarni tergov qilishning asosiy usuliga aylantirishni taklif qilgan[49]. Mahalliy olimlardan T.R.Saitbayev ham TQF natijalaridan dalil sifatida foydalanish tarafdori hisoblanadi[50].

Ikkinchi guruh olimlari TQF natijalarini dalil sifatida tan olishni inkor etadi. Ye.A.Dolya TQF natijalari faqat dalillarni shakllantirish uchun axborot manbai bo‘lishi mumkin, degan xulosaga kelgan[51]. O‘zbekistonlik olim Yu.S.Pulatovning fikricha, tezkor ma’lumotlar olingan paytda qonunda nazarda tutilgan protsessual kafolatlarga rioya qilish mumkin bo‘lmaganligi

[48]Бедняков Д.И. Непроцессуальная информация и расследование преступлений. – М.: Юридическая литература, 1991. – 208 с.

[49]Петрухин И.Л. Предварительное расследование: каким ему быть? // Законодательство. – 2000. – № 10. – С. 71–76.

[50]Saitbayev T.R., Xamdamov A.A. va boshq. O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuniga sharh. – T.: O‘zR IIV Akademiyasi, 2015. – B. 81.

[51]Доля Е.А. Использование в доказывании результатов оперативно-розыскной деятельности. – М.: Спарк, 1996.

sababli ular dalillar tizimidan chiqarib tashlanishi kerak[52]. Ushbu yondashuv himoya tomonining tortishuv imkoniyatini ta’minlash nuqtai nazaridan asosli.

Uchinchi guruh — shartli (kompromiss) yondashuv tarafdorlari — bugungi kunda ustun mavqega ega. V.I.Zajitskiy va A.A.Xamdamov JPK talablariga muvofiq aniqlangan haqiqiy ma’lumotlar, agar ular protsessual manbalar orqali olingan bo‘lsa, dalil bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi[53]. G.M.Reznik esa TQF natijalari norasmiy xususiyati tufayli baholovchida ortiqcha ishonch uyg‘otishi mumkinligidan ogohlantirib, ulardan faqat dalillar nazariyasining asosiy prinsiplariga qat’iy rioya qilingan taqdirdagina foydalanishni joiz deb hisoblaydi[54]. S.A.Sheyfer dalillarni shakllantirish konsepsiyasini ilgari surib, dalil faqat protsessual shaklda «tug‘ilishini», TQF natijasi esa uning xom ashyosi ekanligini asoslagan[55]. Ukrainalik olim M.A.Pogoretskiy TQFning jinoyat protsessidagi «funksional vazifasi» nazariyasini ishlab chiqib, uning natijalarini protsessual dalillarga aylantirish mexanizmini qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustahkamlash zarurligini ko‘rsatgan va bu g‘oya Ukrainaning 2012-yilgi JPKda o‘z aksini topgan[56].

Munozaraning yana bir jihati TQF va jinoyat protsessining o‘zaro nisbati bilan bog‘liq. Ayrim olimlar TQFni protsessual bo‘lmagan (ma’muriy) faoliyat shakli sifatida baholaydi[57], boshqalari esa uni mustaqil faoliyat deb hisoblab, uning jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin va jinoyat protsessi vazifalaridan tashqarida ham amalga oshirilishini asos qilib keltiradi[58]. Shu bilan birga, ikkinchi yondashuv tarafdorlari ham TQFning jinoyatlarni tergov qilish va kriminalistika metodlari bilan chambarchas bog‘liqligini inkor etmaydi[59]. Bizning fikrimizcha, TQF o‘z mohiyatiga ko‘ra protsessual (oshkora) va noprotsessual (nooshkora) faoliyatlar birligidan iborat bo‘lib, uning natijalari aynan shu ikki soha tutashgan nuqtada — taqdim etish va protsessual rasmiylashtirish bosqichida — huquqiy ahamiyat kasb etadi.

G‘arb doktrinasida munozara ko‘proq **provokatsiya** va **raqamli maxfiylik** atrofida kechadi. A.Ashvort davlat agenti «faqat jinoyatchilik muhitiga qo‘shiladimi yoki uni yaratadimi» degan mezonni taklif qilgan va bu mezon keyinchalik IHYeS amaliyotida rivojlantirilgan[60]. M.Damashka esa inkvizitsion va tortishuv tizimlarida dalillar maqbulligi qoidalarining turli mantiqqa ega ekanligini ko‘rsatib, isbotlash qoidalarini mexanik ko‘chirib o‘tkazish xavfidan

[52]Zakurlayev A.K., Pulatov Yu.S. Tezkor-qidiruv faoliyati: o‘quv qo‘llanma. – T.: TDYuU, 2014. – B. 129.

[53]Зажицкий В.И. Понятие использования результатов ОРД в доказывании по уголовным делам // Проблемы формирования уголовно-розыскного права: ведомственный сборник научных работ / под ред. А.Ю.Шумилова. Вып. 3. – М., 2000. – С. 51; Saitbayev T.R., Xamdamov A.A. va boshq. Ko‘rsatilgan asar. – B. 89.

[54]Зажицкий В.И. Указ. соч. – С. 84.

[55] Шейфер С.А. Доказательства и доказывание по уголовным делам: проблемы теории и правового регулирования. – М.: Норма, 2008.

[56] Погорецький М.А. Функціональне призначення оперативно-розшукової діяльності у кримінальному процесі: монографія. – Харків: Арсіс, 2007.

[57]Григорьев В.Н., Прушинский Ю.В. Первоначальные действия при получении сведений о преступлении (процессуальные и организационно-правовые формы): учебное пособие. – М., 2002. – С. 50–51.

[58] Ривман Д.В. Научно-практический комментарий к Федеральному закону «Об оперативно-розыскной деятельности». – СПб., 2003. – С. 14.

[59]Возгрин И.А. Введение в криминалистику. – СПб., 2003. – С. 252–253.

[60]Ashworth A. Re-drawing the Boundaries of Entrapment // Criminal Law Review. – 2002. – P. 161–179.

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

ogohlantiradi [61] . O.Kerr raqamli dalillar an'anaviy protsessual qoidalarni «yangi jinoyat protsessi»ga aylantirishini asoslagan[62].

Mahalliy olimlarning munosabati. Milliy doktrinada xorijiy qarashlarga nisbatan tanqidiy-ijodiy yondashuv shakllangan. Sh.I.Inomjonov dalillarni taqdim etish muammolarini o'rganib, TQF natijalarini protsessual shaklga keltirish zarurligini ilk bor tizimli asoslagan[63]. F.M.Muxitdinov isbotlash faoliyatini «dalillar taqdim etish faoliyati» sifatida ko'rib chiqishni taklif qilib, TQF natijalarini taqdim etish protsessual shaklning ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi[64]. V.Karimov TQF natijalarini turli manbalardan olingan va tezkor usulda tekshirilgan ma'lumotlar majmuiga asoslangan axborot sifatida baholaydi[65]. Sh.Sobirov raqamli dalillarni olishda ma'lumotlarni saralash mexanizmlari va sud nazorati darajasi pastligini tanqid qilib, AQSh sud amaliyoti tajribasi asosida «ma'lumotlarni minimallashtirish» prinsipini joriy etishni taklif qiladi[66]. Bizning pozitsiyamiz uchinchi guruhga yaqin bo'lib, quyidagicha ifodalanadi: TQF natijasi o'z-o'zidan dalil emas, lekin u qonuniy olingan, JPKda belgilangan tartibda taqdim etilgan, protsessual vositalar bilan tekshirilgan va aloqadorlik, maqbullik, ishonchlilik nuqtai nazaridan baholangan taqdirda to'laqonli dalil maqomini oladi. Ushbu pozitsiya JPK 81-moddasining 3-qismida normativ ifodasini topgan. TQF natijalarini dalilga aylantirish modeli 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. TQF natijalarini jinoyat ishi bo'yicha dalilga aylantirish modeli. Muallif ishlanmasi.

Olingan natijalar uchinchi (shartli) yondashuvni tasdiqlaydi. **Birinchidan,** amaliyot tahlili ko'rsatganidek, TQF natijasi asosidagi dalilning nomaqbul deb topilishiga odatda uning mazmuni

[61]Damaška M.R. Evidence Law Adrift. – New Haven: Yale University Press, 1997.
[62]Kerr O.S. Digital Evidence and the New Criminal Procedure // Columbia Law Review. – 2005. – Vol. 105, No. 1. – P. 279–318.
[63]Inomjonov Sh.I. Jinoyat protsessida dalillar taqdim qilish va foydalanishning muammolari: yuridik fanlar nomzodi ... dissertatsiyasi. – T., 2003.
[64]Muxitdinov F.M. Ko'rsatilgan dissertatsiya. – B. 57.
[65]Karimov V. Ko'rsatilgan darslik. – B. 385.
[66]Собиров Ш. Цифровые доказательства в уголовном процессе: вызовы, судебная практика и перспективы реформирования // Общество и инновации. – 2023. – Т. 4, № 6. – С. 115–127.

emas, balki taqdim etish va rasmiylashtirishdagi kamchiliklar sabab bo‘ladi. Demak, muammo TQF natijasining tabiatida emas, uni protsessual shaklga o‘tkazish tartibining qonun darajasida belgilanmaganligida. Bu S.A.Sheyferning dalillarni shakllantirish konsepsiyasiga mos keladi. **Ikkinchidan,** qiyosiy tahlil M.A.Pogoretskiy ilgari surgan g‘oya — natijalarni dalilga aylantirish mexanizmini qonunda bevosita mustahkamlash — Ukraina va Qozog‘iston qonunchiligida amalda o‘z tasdig‘ini topganini ko‘rsatadi. **Uchinchidan,** raqamli TQF natijalari bo‘yicha aniqlangan bo‘shliqlar Sh.Sobirov taklif qilgan «ma’lumotlarni minimallashtirish» prinsipini hamda E.Keysi va S.Meyson asoslagan saqlash zanjiri talablarini qonun darajasida mustahkamlash zarurligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ikkinchi guruh olimlarining himoya tomonining tortishuv huquqi haqidagi xavotiri asosli: shu sababli quyida taklif etilayotgan mexanizm tezkor xodimni so‘roq qilish va himoyachining asl materiallar bilan tanishish huquqini ham o‘z ichiga oladi.

Aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha normativ takliflar 6-jadvalda umumlashtirilgan.

Aniqlangan kamchilik	Taklif (normativ yechim)
TQF natijalarini dalilga aylantirish mezonlari qonun darajasida belgilanmagan	TQF Qonunining 19-moddasini yangi tahrirda bayon etish: «TQF natijalari JPK talablariga muvofiq taqdim etilgan, tekshirilgan va baholangan taqdirda isbotlashda foydalanilishi mumkin. Taqdim etish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi»
Huquqlarni cheklovchi TQT va tergov harakatlariga ruxsat berishda ikki xil standart	TQF Qonunining 16-moddasiga o‘zgartirish kiritib, Konstitutsiya 31-moddasida nazarda tutilgan huquqlarni cheklovchi TQTlarga ruxsat berish vakolatini tergov sudyasiga o‘tkazish; kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda 24 soat ichida sudni xabardor qilish
Provokatsiya mezonlari yo‘q	JPK 88-moddasini yangi qism bilan to‘ldirish: provokatsiya — shaxsda jinoyat sodir etish niyati mavjud bo‘lmagan holda davlat organi yoki uning topshirig‘ini bajaruvchi shaxs tomonidan uni jinoyat sodir etishga faol undash; bunday holatda olingan barcha hosila dalillar ham maqbul emas
Tezkor xodimni so‘roq qilish tartibi noaniq	JPKda TQF natijalari dalil sifatida qo‘llanilganda tezkor xodimni guvoh sifatida so‘roq qilish, maxfiy hamkorni esa faqat yozma roziligi bilan va shaxsini himoya qilish choralarini qo‘llagan holda so‘roq qilish tartibini belgilash (Tojikiston tajribasi)
Raqamli TQF natijalari bilan ishlash reglamentlanmagan	TQF Qonuniga «Raqamli natijalarni qayd etish va saqlash» moddasini kiritish; JPK 204²-moddasini TQF natijalari bilan to‘ldirish; xesh-summa va saqlash zanjiri jurnalini majburiy qilish; raqamli dalillar yagona reyestrini yaratish

Aniqlangan kamchilik	Taklif (normativ yechim)
Idoralararo taqdim etish tartibi eskirgan	TQF natijalarini surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga taqdim etish to‘g‘risidagi yagona idoralararo yo‘riqnomani elektron hujjat aylanishi va maxfiylikdan chiqarish tartibini hisobga olgan holda qabul qilish

6-jadval. Qonunchilikdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

Taklif etilayotgan o‘zgarishlar bir-birini to‘ldiruvchi uch yo‘nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: **normativ** (TQF Qonuni va JPKga o‘zgartishlar), **tashkiliy** (idoralararo yo‘riqnoma, yagona raqamli reyestr, tezkor va tergov bo‘linmalari hamkorligi algoritmi) hamda **kadrlar va texnik** (tezkor xodimlar va tergovchilarni raqamli kriminalistika bo‘yicha o‘qitish, sertifikatlangan dasturiy vositalar bilan ta’minlash). Ushbu choralar dastlabki tergovda TQF natijalaridan foydalanishni jadallashtirish bilan birga, shaxs huquq va erkinliklarining kafolatlarini ham kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. TQF natijalaridan jinoyat ishlari bo‘yicha foydalanishning ijtimoiy zaruriyati jinoyatchilikning uyushganlik, latentlik va raqamlashuv darajasi ortib borayotgani, faqat oshkora protsessual vositalar bilan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni fosh etish imkoniyati cheklanganligi hamda jazoning muqarrarligini ta’minlash talabi bilan belgilanadi.

2. TQF natijalaridan foydalanishning huquqiy asoslari Konstitutsiya (27–31-moddalar), TQF Qonuni (5, 14, 16, 19-moddalar), JPK (39², 81, 88, 95, 204¹–204²-moddalar), Oliy sud Plenumi qarorlari va idoraviy hujjatlardan iborat ko‘p darajali tizimni tashkil etadi; ushbu tizimning barcha bo‘g‘inlari Konstitutsiya va qonunga so‘zsiz bo‘ysunish prinsipiga asoslanishi shart.

3. TQF natijasi o‘z-o‘zidan dalil emas: u qonuniy olingan, JPKda belgilangan tartibda taqdim etilgan, tekshirilgan va baholangan taqdirdagina dalil maqomini oladi. Provokatsiya, sanksiyasiz tadbirlar va yaxlitligi tasdiqlanmagan raqamli ma’lumotlar asosida olingan natijalar maqbul emas.

4. Xorijiy tajriba (Ukraina, Qozog‘iston, Germaniya, AQSh) TQFning protsessuallashuvi va konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi barcha tadbirlarning sud nazoratiga o‘tishi tendensiyasini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda tergov sudyasi institutining joriy etilishi ushbu tendensiyaga mos bo‘lib, uni TQF sohasiga ham tatbiq etish zarur.

5. Raqamli TQF natijalari uchun olish, qayd etish, saqlash, taqdim etish, tekshirish va tizimlashtirish bosqichlarini qamrab oluvchi yagona standart (xesh-summa, saqlash zanjiri, yagona reyestr) qonun darajasida belgilanishi lozim.

6. TQF natijalarini taqdim etish va rasmiylashtirish amaliyotidagi muammolar (hujjatlarning dalil turiga nisbatan noaniqligi, saqlash zanjirining uzilishi, texnik ma’lumotlarning to‘liq qayd etilmasligi, asl materiallarning TQF organida qolishi) yagona qonuniy standart ishlab chiqilishini taqozo etadi; huquqlari cheklangan shaxsni keyinchalik xabardor qilish va mustaqil nazorat mexanizmlarini joriy etish ham zarur.

7. TQF Qonunining 16 va 19-moddalariga, JPKning 88 va 204²-moddalariga o‘zgartirish kiritish, idoralararo yo‘riqnomani yangilash dastlabki tergovda TQF natijalaridan foydalanishni jadallashtirishning huquqiy kafolati bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel, yangi tahrir) // www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (1994-yil 22-sentabr) // www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdagi «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-344-son Qonuni // www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-noyabrdagi O‘RQ-651-son Qonuni // www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O‘RQ-675-son Qonuni // www.lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-son Qonuni // www.lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // www.lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi PF-89-son Farmoni // www.lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-son qarori // www.lex.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 16-son qarori // www.lex.uz.
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 3-nashr. – T.: «O‘zbekiston», 2022.
12. Karimov V. Tezkor-qidiruv faoliyati: darslik. – T.: «Lesson Press», 2021.
13. Muxitdinov F.M. Jinoyat-protsessual shakl: nazariy va metodologik muammolar: yu.f.d. ... diss. – T., 2005.
14. Inomjonov Sh.I. Jinoyat protsessida dalillar taqdim qilish va foydalanishning muammolari: yu.f.n. ... diss. – T., 2003.
15. Saitbayev T.R., Xamdamov A.A. va boshq. «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunga sharh. – T.: IIV Akademiyasi, 2015.
16. Zakurlayev A.K., Pulatov Yu.S. Tezkor-qidiruv faoliyati: o‘quv qo‘llanma. – T.: TDYuU, 2014.
17. Kuziyev A.R. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va tergov bo‘linmalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yangi tendensiyalari // Yurist axborotnomasi. – 2020. – № 6.
18. Xaydarov M.M. Dastlabki tergovda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni takomillashtirish: PhD diss. – T., 2023.

19. Бедняков Д.И. Непроцессуальная информация и расследование преступлений. – М.: Юрид. лит., 1991.
20. Доля Е.А. Использование в доказывании результатов оперативно-розыскной деятельности. – М.: Спарк, 1996.
21. Шейфер С.А. Доказательства и доказывание по уголовным делам: проблемы теории и правового регулирования. – М.: Норма, 2008.
22. Погорецький М.А. Функціональне призначення оперативно-розшукової діяльності у кримінальному процесі. – Харків: Арсіс, 2007.
23. Собиров Ш. Цифровые доказательства в уголовном процессе // Общество и инновации. – 2023. – Т. 4, № 6. – С. 115–127.
24. Ashworth A. Re-drawing the Boundaries of Entrapment // Criminal Law Review. – 2002. – P. 161–179.
25. Damaška M.R. Evidence Law Adrift. – New Haven: Yale University Press, 1997.
26. Kerr O.S. Digital Evidence and the New Criminal Procedure // Columbia Law Review. – 2005. – Vol. 105. – P. 279–318.
27. Casey E. Digital Evidence and Computer Crime. 3rd ed. – Academic Press, 2011.
28. Mason S., Seng D. (eds.) Electronic Evidence and Electronic Signatures. 5th ed. – London: University of London Press, 2021.
29. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948); Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966) // www.lex.uz.
30. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi O‘RQ-547-son Qonuni // www.lex.uz.
31. Temur tuzuklari. – T., 1996.
32. Гордеев С.Н. Организация розыскной работы правоохранительных органов (зарубежный опыт) // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. – 2016. – № 3.
33. Григорьев В.Н., Прушинский Ю.В. Первоначальные действия при получении сведений о преступлении. – М., 2002.
34. Klass and Others v. Germany, no. 5029/71, ECHR, 6 September 1978.
35. Roman Zakharov v. Russia [GC], no. 47143/06, ECHR, 4 December 2015.
36. Big Brother Watch and Others v. the United Kingdom [GC], nos. 58170/13 et al., ECHR, 25 May 2021.
37. Regulation (EU) 2023/1543 of 12 July 2023 on European Production Orders and European Preservation Orders for electronic evidence.
38. Convention on Cybercrime (ETS No. 185). – Budapest, 2001.
39. United Nations Convention against Cybercrime. UN GA Res. 79/243, 24 December 2024.